

BULUTLI HISOBLASHNI XORIJIY TILLARNI O‘RGATISHGA QO‘LLASH**Mulaydinov Farxod,**

Qo‘qon universiteti Akademik ishlar departamenti boshlig‘i

Po‘latova Ruxshonaxon,

Qo‘qon universiteti, Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha keng tarqalayotgan bulutli hisoblash tizimlari va ushbu texnologiya asosida turli xildagi platformalar ta‘lim tizimida keng qo‘llanayotgani hech kimga sir emas. Buning natijasida ta‘limni masofadan turib olish, yangi bilimlarni egallash va shu orqali yangi tilni o‘zlashtirish imkoniyatlari til o‘rganuvchilarga qulayliklar hosil qilmoqda. Albatta bu qulayliklardan foydalanishda foydalanuvchilar soni oshgan sari insonlarni platformalarga bo‘lgan ehtiyoji ham oshishi muqarrar. Bunday platformalar esa kame mas va har biri chet tilin o‘zlashtirishda yokida boshqa yo‘nalishda ilm olishda kata hissa qo‘shayotganligi ayon barchamizga

Kalit so‘zlar: platformalar, bulutli hisoblash, tizim, ta‘lim, texnologiya, internet, yosh avlod, dastur.

Kirish: Bu tezisda biz shuni bayon qilamizki bugungi zamonaviy 21-asrda, texnologiyalar kundan kunga rivojlanayotgan pallada albatta o‘qish va o‘qitishda axborot vositalari katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa hozirgi kunda dunyo aholisining ko‘p qismi ta‘lim tizimiga bulutli hisoblash dasturlarini kiritgan va bu ommada keng qo‘llanayotgan dasturlardan bo‘lganligiga hech shubha yo‘q. Bu tezis davomida bulutli hisoblashni nafaqat maktablarda balki ta‘lim tizimida chet tillarini o‘rganishda ko‘rsatayotgan afzalliklari va kelajakdagi yutuqlari shuningdek bunday o‘qishlar uchun qanday platformalardan foydalanish biz uchun foydaliligi va ularning biz biladigan hamda bilmaydigan tomonlarini ko‘rsatib o‘tamiz

Asosiy qism: Albatta hozirda butun dunyo bo‘ylab bulutli hisoblash va uning platformalarini keskin o‘sib borayotgani bizga yangilik emas. Ayniqsa Buyuk Britaniya universitetlarining 35% dan ortig‘i bulutli hisoblashdan keng foydalanyapti va bu albatta kelajakda ham o‘z o‘sish darajalarini ko‘rsatadi. Hech shubha yo‘qki, bulutli hisoblash bizning ish tarzimizni yashashimizni ko‘ngil-xushligimizni va boshqalarni o‘zgartirib yuborad. Shuningdek bu dastur har xil ishlar uchun foydalaniladi, masalan: maktab darslari uchun, o‘qituvchilar hujjatlarini almashishlari, materiyallarni saqlashlari va tarqatishlari mumkin hamda boshqa ishlarda ham bulutli hisoblash tizimining afzalliklari ko‘p. Bulutli hisoblash hamiyatta kichik va o‘rta biznes va yirik korxonalar tashkilotlari bulutli hisoblash platformasiga shunchalik ishonadilarki ularning ishlari ularning kampaniyasi bularsiz o‘sishtan to‘xtaydi va ish bermaydi. Shuning uchun bu bizga jamiyat sifatida ta‘lim sohasida va albatta xorijiy tilni o‘zlashtirishga bu sohalarda oldinga siljishga ko‘maklashadi deb o‘ylasak mantiqan to‘g‘ri.

Bulutli texnologiyalar xorijiy til fani uchun ham juda kerakli dastur desak yanglishmaymiz. Ayniqsa covid-19 da bulutli texnologiya o‘qish va o‘qitishda o‘z qirralarini ko‘rsatgani hech kimga sir emas. Xorijiy tillarni o‘rganishda bu dasturdan o‘quvchi va o‘qituvchilar keng foydalana oldilar. Albatta yoshlarimiz uyda qolgan paytlarida ham ilm bilan mashg‘ul bo‘lishgani yaxshida! Buni

boshqa afzallik tomonlari ham bor, misol uchun, xavfsizlikni oladigan bo‘lsak bu dastur uzluksiz ishlashni ta‘minlaydi, bundan kelib chiqadiki siz hech qanday uzilishsiz o‘z faningizni o‘rgana olasiz va sizning qanday turdagi bo‘lsa ham fayl papkalarigizni saqlab berish hususiyatiga ega. Litsenziyaga pul sarflash ortiqcha tashvishlar haqida o‘ylamasangiz ham bo‘ladi. O‘quvchi dunyoning boshqa tomonida bo‘lsa ham siz huddi oldingizdagidek o‘qita olishingiz uchun imkoniyatlar ham bor va bu orqali chet tillarini o‘rganish va o‘rgatish yana ham osonlashadi. Ta‘lim sektori bulutli resurslardan foydalanishni imkoniyatlari ko‘p va bunga doir ko‘plab servislar ham mavjud.

Agar biz bulutli hisoblash orqali kelajakka boqadigan bo‘lsak albatta yoshlar ko‘proq masofaviy ta‘limni olg‘a suradilar. Har qanday joyda, har qanday sharoitta o‘ziz hohlagan o‘qituvchi bilan chet tilini chet el muhitidagi kabi o‘rganish albatta bu hamma insonga bir xil yoqadigan hissiyot. Bulutli hisoblash platformasida o‘qish uchun bonus bo‘lgan narsa shuki bu texnologiya ishonchli, bu esa alohida maktab yokida kollejlarga qaraganda yuqori darajada ishlash imkoniyatini beradi. Erkinlikka keladigan bulsak bu yerda juda ham ko‘p e‘tibor berilmaydi sababi shuki. Talaba huddi bino ichida o‘tirgandek dars oladi va yana shuni takidlab o‘tishimiz joizki masofaviy ta‘limda natija yaxshi emas diganlar albatta adashganlarini anglab yetishadi sababi bunda an‘anaviy o‘qitish rejimidanda yaxshiroq natija ko‘rilishi tabiiy holat tusiga kirgan. Bunday o‘qish uchun juda ham ko‘plab platformalar yaratilgan qaysi biri siz uchun qulay bo‘lsa shu platformada o‘qish yana ham yaxshiroq albatta. Chunki inson uchun qulaylik mavjud bo‘lsa u yerda intilish kuchli bo‘ladi va albatta yoshlar o‘rtasida o‘zlari qiziqib intilgan sohalarida tez o‘sish kuzatiladi. Hozirda ma‘lumot berishim kerak bo‘lgan narsa esa faqat platformalar haqida.

1. Coursera: bu dunyodagi eng yirik va eng mashhur platforma hisoblanib juda ham ko‘p foydalanuvchilarga ega desak ham bo‘ladi. Bu platformada siz minglab video darslarni onlaynda o‘rganishingiz mumkin. Stenford va Princeton kabi elita universitetlari, shuningdek, IBM va Google kabi yirik korxonalarining video darsliklari kiritilgan va siz ulardan bemalol foydalanishingiz hatto chet tilini o‘rganishingizda ham foydali bo‘lishi mumkin. Shuningdek, ushbu platforma bepul kurslarni ham taklif etadi. Siz chet tili bilan birgalikda dasturlash yoki mashinalar haqida ko‘plab bilimga ega bo‘lmoqchi bo‘lsangiz albatta bu eng yaxshi dasturdir

2. Xan akademiyasi: bu platforma ham dunyodagi mashhur tizimlardan biridir va bu orqali siz dunyo qarashingizni kengaytirish imkoniyatiga egasiz. Bu esa chet tili uchun juda ham muhim. Bu platforma orqali yanada chuqurroq o‘ylab izlanishni o‘rganib bir qancha maruzaviy video darslar topib, ularni kuzatishingiz mumkin. Bu aqlli insonlar uchun bepul darslarni taqdim etadi. U o‘z darslarida mukammallik darajasidagi darsliklarni taqdim etadi va bundan siz oz ko‘nikmalarigizni o‘z dunyo qarashingizni o‘zgartirishingiz mumki. Teslarga ham Xan Akademiyasi bilan birgalikda tayarlanishingiz chet tililarni o‘rganib yuqori darajadagi universitet uchun yetarli bilimni to‘plashingiz aniq Yana shuni takidlab ketish joizki o‘zbek tilidagi platformalar hali unchalik ham mashhur emas bu platforma esa ulardan o‘z mashhurligi bilan ajralib turadi, va kelajakda bu platformaga o‘xshagan mashhur platformalarni ham chet tili ham o‘zbek tilida yaratishga turtki bo‘ladi degan umiddamiz

3. FutureLearn: bu platforma ochiq universitetga tegishli, ammo siz bu tizimdan o‘zingizga kerakli bo‘lgan kurslar chet tili kurslarini qisqa video roliklarini ko‘rib o‘rgana olasiz va

shunday kurslarni tamomlab sertifikatga ham ega bo‘lashingiz mumkin, ammo sertifikatlari pullik. Siz qanchalik chuqur o‘rganishni hohlayotganingizga qarab har xil videolar topishingiz mumkin yani qisqa va uzunroq bo‘lgan videolar mavjuda chet tili o‘rganish murakkabroq bo‘lgani uchun kuniga yoki kunning nechchidur qismida qisqa-qisqa videolardan o‘rganganingiz ma’qul deya tavsiya beraman bu avvalo natijasi yaxshi bo‘lishiga hamda zerikib, behafsalali bilan o‘rganmasligizga ham foydali

4. OpenLearn: qisqa videolardan emas uzoq videolardan yaxshi ta’lim olaman deganlar uchun ushbu platforma tavsiya etiladi sababi bu dasturda videola 2-3 soatidan 24soatlikkacha joylanadi yana siz hohlagan joyingizda bu dastur orqali ta’lim bepul olishigiz mumkin. Qancha vaqt ajratsangiz ham natija yaxshi bo‘ladi degan fikrdamiz ammo eng avvalo bu insonning o‘ziga va say-harakatlariga bog‘liqligi hammamizga ayon. Agar siz chet tilimi yokida boshqa yo‘nalishdami o‘qituvchi bo‘lish maqsadida bo‘sangiz OpenLearn siz uchun eng yaxshi talov bo‘lishi mumkin.

5. SoloLearn: bu dastur o‘z ko‘nikmalarini oshirmoqchi bo‘lgan insonlar uchun yaratilgandek. Sababi shuki bu dasturda siz chet tili o‘rganishda o‘z ko‘nikmalingizni oshirasiz ko‘plab video darsliklarni ko‘rish kuzatish orqali oo‘zingizga kerakli bo‘lgan bilimni o‘zlashtirasiz. Qobiliyatlarga ham bu platformani foydasi katta insonni o‘zida bor qobiliyatlrni yuzaga chiqaradi va ularni rivojlantirishda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Xulosa: shunday qilib biz bulutli hisoblashning chet tilidagi o‘rni va qanday platformalar biz uchun foydaliligini bilib oldik va bundan keyin biz masofaviy shaklda ham chet tilini bemalol o‘zlashtira olamiz degan umiddaman. Albatta bularni qo‘llash va ommaga keng yoyish biz yoshlar uchun juda ham foydalidir. Kelasi avlodlarga ham shunday platformalarni yaratib ularning sonini ko‘paytirish, ularni chet tilini o‘zlashtirishga jalb qilish jamiyattagi o‘sishni ko‘rsatadi. Bu orqali esa yosh avlodlarimiz yana ham oson shaklda ta’lim oladilar va ularni o‘z sohalarida qo‘llash kengaytirish va dunyo bo‘yicha yoyib, malakalarini oshirishga ijobiy natija ko‘rsatadi. Biz bilganimizde qachonki texnologiya yo‘nalishi bilan chet tili chambarchas bo‘la olsa natijasi kattaroq bo‘ladi. Sababi texnologiyada ayniqsa dastur yaratishda faqat bitta tilga emas ko‘plab tillarga mo‘ljallab bu borada qulaylik qilinsa foydalanuvchilar soni keskin ravishda oshadi. Shuning uchun ham bulutli hisoblashdagi dasturlar butun dunyo bo‘yisha mashhur deb hech ikkilanmay ayta olamiz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.S.Gulyamov, F.M.Mulaydinov. Bulutli hisoblash. T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”. 2022, 196 bet.

2. Mulaydinov F., Solidjonov D. Application of information technologies and online platforms in the educational system. – 2021.

3. Solidjonov, D., & Nishonqulov, S. (2021). Ta'lim biznesida yangi innovatsion texnologiyalarning qo'llanishi journal of innovations in scientific and educational research volume-1. ISSUE-3 (Part-1, 18-JUNE), 1, 195-199.

4. Yoldashev, A. E. O., Nishonqulov, S. F. O., & Yoldasheva, M. R. Q. (2021). Ta'limdagi axborot texnologiyalari. Scientific progress, 2(3), 806-813.